

SHAVKAT RAHMONNING “TURKIYLAR” SHE’RI TAHLILI**Tarmashboyeva Parizoda Boburovna**

Ozbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Filologiya fakulteti

Ozbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Berdiyev Xusan Xolnazarovich

Ilmiy rahbar: dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213355>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shavkat Rahmonning hayoti va ijodi, “Turkiylar” she’ri tahlili berildi.

Kalit so‘zlar: Shoir, she’r, turk, yov, Alloh, Qul Bilol.

ANALYSIS OF THE POEM "THE TURKS" BY SHAVKAT RAHMAN

Abstract. This article analyzes the life and work of Shavkat Rahman, the poem "Turks".

Key words: Poet, poem, Turk, Yav, Allah, Qul Bilal.

АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЯ ШАВКАТА РАХМАНА «ТУРКИ»

Аннотация. В статье анализируется жизнь и творчество Шавката Рахмана, поэма «Турки».

Ключевые слова: Поэт, стихотворение, Тюрк, Яв, Аллах, Кул Билал.

Iste’dodli shoir Shavkat Rahmon 1950-yil 12-sentabrda O‘sh viloyati Qorasuv tumaniga qarashli Pomir mahallasida tug‘ilgan. Otasi Rahmonberdi va onasi Oftobxon asli shahrixonlik edi.

1966-yilda o‘rta maktabni bitirdi. Matbuotda Moskvadagi Adabiyot institutiga tanlov e‘lon qilingach, o‘z she’rlarini yubordi va tanlovdan o‘tdi. U yerda tengdoshlari Halima Xudoyberdiyeva, Murod Muhammad Do‘st, Sobit Madaliyev bilan birga saboq olishgan [1].

Shavkat Rahmon barcha she’rlariga va tarjima qilgan asarlariga ham boshqacha ma’suliyat bilan qarar edi. U shunchaki so‘zlarni ketma-ket qo‘yib she’r yozmaydi. Har bir she’rlarida xalqning dardi, orzu- o‘ylari, armonlarini aks ettirardi. Uning she’rlari o‘quvchiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymaydi. Har bir she’rida inson timsoli yotadi. Uning “Turkiylar” sherida ham otobobolariga munosib bo‘la olmagan odamlarga xos illatlar qoralangan:

Ilvasin yigitlar, bobir yigitlar,
Sajdaga bosh qo‘ydi yovga ters qarab.
Gullarni kemirib yig‘ladi itlar
Buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab [3].

Ya'ni, shonli ota-bobolar davomchilari bo'lgan turkiy xalqlar dushman bostirib kelganda ularga qarshi kurashish o'rniga ularga ters qarab, taslim bo'lishdi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Shavkat Rahmonning ushbu she'rida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladigan "r" sonori har bir qatordagi so'zda qo'llangan. Va uning ovozdorligini, tarixiylikni aks ettirishda yordam bergan. Yov bostirib kelishi, tarixiy voqealar haidagi she'rlarda til orqa va chuqur til orqa undoshlari (k, g, q, g', x) ko'proq qo'llaniladi. Ushbu undoshlar jiddiylik va jangovarlik, tarixiylikni ifodalaydigan so'zlarda uchraydi. "Turkiylar" she'rida esa "r" sonori 137 o'rinda qo'llanganini ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, shoir lirik ifodani yanada kuchaytirish uchun ba'zida imlo qoidalaridan farq qiladigan ifodalarni ham ishlatgani kuzatiladi.

Masalan: "yetkazib" so'zini "yetkarib" shaklida, "ularga" o'rnida "alarga", "emas"ni "ermas" shaklida ham qo'llagan. Ularning ayrimlari dialektal, ayrimlari tarixiy shakllardir.

Talandi samoviy tulpor uyuri,

Talanda zarlari, zeb-u zabari.

"Ters qarab o'ling" deb yovlar buyurdi,

Yovlarga ters qarab jon berdi bari [3].

Xalqning bor-u yo'g'i talangani, xalqning tarixi arabiy, turkiy xatlar yo'qolayotgani, lekin hech bir kimsa ularga qarshi chiqmagani, dushman o'l desa bari jon bergani tasvirlangan misralar insonni ranjitadi. Shoir shunday mahorat bilan yozadiki go'yo bo'layotgan hodisalar Ichida o'zi ham qatnashgandek, ularga dalda bo'lmoqchidek.

Bor bo'lsa alarga yetkazib qo'ying,

Bir boshga bir o'lim demagan ermas.

Shahidlar o'lmayd, bir qarab tuying,

Yovga ters qaragan musulmon ermas [3].

Ushbu satrlarda shoir xalq uchun qayg'uradi, mard bolalar bormi? Bo'lsa ularga ayting yovga orqa o'giran musulmon emas, shahidlar o'lsayam xotirasi qalblarda mangu yashaydi degandek go'yo.

Eshak suvrati bor qay bir qavmda,

Qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.

Bu holda buvaklar bo'g'ilib o'lar,

Qul Bilol ezilib yig'lar falakda [3].

Imon-diyonatdan kechganlarni ko'rib shoirning yodiga qul Bilol tushadi. Qul Bilol to'liq ismi Abu Abdullo Bilol ibn Raboh al- Habashiy. Islom tarixida birinchi muazzin (e'lon qiluvchi, chaqiruvchi). Xojasi Umayya ibn Halaf islomdan voz kechishni talab etib, Bilolga toqat qilib bo'lmas azoblarni bergan [2]. Shunday azoblar ostida ham e'tiqod yo'lidan kechmagan. Bosh

egmagan. Dushmanga orqa o‘giranlarni ko‘rib qul Bilol ruhi falakda yig‘lar degan o‘xshatishlarni qo‘llagan shoir. Va xalqni ham millatining tarixini, kelajagani asrashga undaydi.

Shoirning e‘tiqodida “shoirlik-jasorat so‘zining tarjimai” edi. Insonlar qalbidan o‘z hayotiy she‘rlari bilan joy olgan shoir 1996-yil “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlandi.

REFERENCES

1. Shavkat Rahmon. “Saylanma”. – Toshkent, 1997.
2. Islom ensiklopediyasi (Islom.ziyouz.com)
3. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2019.